

DISTOPIYANING ADABIY JANR SIFATIDA RIVOJLANISHI

Kadirova Durdona Dilshadovna

1-bosqich tayanch doktoranti

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

+998909666389

E-mail: durdona20011989@gmail.com

***Annotatsiya.** Distopiya janri adabiy janr sifatida paydo bo'lishi adabiyot sohasida qator o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Distopiyaga qadar paydo bo'lgan atamalar hamda ularning o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikka ham to'xtalib o'tiladi. Ushbu tezisdagi distopiyaning adabiy janr sifatida taraqqiy etishi hamda adabiyotda bu janrning tutgan o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, yozuvchi Margaret Etvudning distopiya janrining rivojlanishiga qo'shgan hissasi va distopik asarlari haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** utopiya, eutopiya, evroniya, antiutopiya, distopiya, ilmiy-fantastika, ustopiya.*

Hozirgi kunda adabiyot sohasida taraqqiy etayotgan distopiya janri kelib chiqishi utopiya janrining paydo bo'lishiga borib taqaladi. «Utopiya» atamasi esa Tomas Murning «Utopiya» asari yaratilgach paydo bo'ldi hamda mazmuniy xususiyatga ega bo'ldi. Murning «Utopiya»sida utopiya-mukammal bo'lgan jamiyatni tasvirlaydi. Shundan kelib chiqib, «utopiya» atamasi «mukammal jamiyat»ni ifodalash uchun adabiyotda ishlatila boshlandi. «Distopiya» «Utopiya» ga qarama-qarshi yaratilgan zamonaviy atama bo'lib, jirkanch hayoliy dunyo, asosan rejalashtirilgan kelajakni nazarda tutadi. Ilmiy-fantastikaning yoki zamonaviy satiraning muhim shakli bo'lib, G. J. Uellsning «Vaqt mashinasi»(1895), J. Oruelning «1984»(1949), R. Hobanning «Ridley daydi»(1980) asarlari distopiya nasrining namunalari hisoblanadi [9,74]. Distopiya janrining taraqqiyot jarayonini o'rganar ekanmiz, distopiya janri ilk paydo bo'lishi jarayonida unga yaqin bir necha atamalar paydo bo'lganki, bu atamalar ma'no jihatidan bir-biriga yaqinligi sabab hatto distopiya bilan adashtirib ham qo'llanilgan. Eutopia- yaxshi joy bo'lsa, undan paydo

bo'lgan yevroniya atamasi esa kelajakdagi yaxshi joy degan ma'noni anglatadi [4,901]. Keyinchalik 18-asr ziyolilarining farazlari boshqa bir atama-antiutopiya janrining tug'ilishiga turtki bo'ldi. Bu adabiy janr utopiyaning butunlay teskarisini ifodalab qolmay, u bilan deyarli umumiy va o'xshash xususiyatlarga egaligi jihatidan utopiyasiz mavjud bo'la olmas edi. Agar utopiya umidni talqin qilsa, satirik utopiya esa ishonchsizlikni, antiutopiya esa butunlay ishonchsizlikni talqin qiladi. Aslida antiutopiya utopik ruhning kamsitilishi bo'lib, uning maqsadi utopik orzularning ahamiyatsizligi va nomuvofiqligini, jamiyatning vayron b'lishini qoralashdan iboratdir [3,16].

Distopik yozuvchilar kelajakni o'ta salbiy bo'yoqlarda tasvirlasalar-da, lekin o'z kitobxonlaridan bunga o'ta ijobiy munosabat kutadilar. Bir tarafdin kitobxonlar barcha insonda har doim kamchilik bo'lishiga, shu sababli shaxsiy rivojlanishdan ko'ra ijtimoiy rivojlanish siyosiy va ijtimoiy barkamollikka olib boruvchi yagona yo'l ekanligiga ishontiriladilar, boshqa tomondan, kitobxonlar tasvirlanayotgan kelajak aslida mavjud emas, balki insonni buni oldini olishga o'rgatish uchun o'ylab topilgan extimol ekanligini tushunadilar [4,902]. Distopiyada asosiy mavzu totalitar tartib, fuqarolarning to'liq bo'ysunishini talab qilish, tashlandiq yolg'izlik, mavjud tuzumga muttaasil hamda samarasiz tarzda norozilik bildirish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish uchun ilmiy- texnologik fan yutuqlaridan foydalanishdan iborat.

Kanada adabiyotining yirik vakilasi, shoira hmada yozuvchi, adabiy tanqidchi Margaret Etvud ijodiy faoliyati davomida turli xil janrlarda asarlar yaratgan. Lekin Etvud ijodida distopiya janri alohida o'rin egallaydi. Etvud serqirra ijodkor va adabiy tanqidchi bo'lganligi sabab, distopiya janri haqida o'z qarashlariga ega ijodkor hisoblanadi. Ba'zi tanqidchilarning distopiya janrini ilmiy fantastika sifatida qabul qilishiga Etvud butunlay qarshi bo'ldi. O'zining "Oqsoch hikoyasi" asari haqida gapirar ekan, uning ilmiy fantastika sifatida qabul qilinishiga butunlay qarshi ekanligini aytadi. «Oqsoch hikoyasi» Tom Moylan ta'kidlaganidek «sof distopiya»[7,190] emas, chunki asar so'ngida utopiyaga- yaxshiroq kelajakka umid aks etadi. Lekin Rafaella Bakkolini uni «tanqidiy distopiya» deb ataydi. [8,164]. Utopik kayfiyat zamonaviy feminist distopiyalarida ham mavjud bo'lib, Mohr ularni

«transregressiv utopik distopiyalar» [6,4] deb atadi. Etvud esa bu ikki atamani gibridd shaklida birlashtirib, «ustopiya» [2,66] deb atadi. “Utopia is a word I made up by combining utopia and dystopia- the imagined perfect society and its opposite- because, in my view, each contains a latent version of the other.” [1,92]. Margaret Etvud ijodida “Oqsoch hikoyasi”, “Adam trilogiyasi” asarlari distopik asarlar hisoblanadi. Shuningdek, uning “Yurak oxiri uradi” (“The Heart goes last”) asari kelajak haqidagi ham kulgili, ham qayg‘uli asar bo‘lib, satirik distopiya yo‘nalishida yozilgan. Asar 2012-yilda onlayn roman tarzida yozilgan bo‘lib, Bilayner veb-saytida e‘lon qilingan edi. Asar 2015-yil kitob holida chop etildi. Asar distopiya janrining xususiyatlaridan bo‘lgan iqtisodiy inqiroz, atrof-muhitning vayron bo‘lishi, ilmfandan noto‘g‘ri yo‘lda foydalanish, bioinjeneriya kabi masalalarni qamrab oladi. Asar bosh qahramonlari Sharmen va Sten yangi oila qurgan juftlik bo‘lib, buyuk moliyaviy inqiroz sababli uy-joysiz va xatto ishsiz qoladilar. Ana shunday bir paytda ular yangi barpo etilgan shaxarcha uy-joy hamda ish taklif qilayotgani haqidagi e‘longa ko‘zlari tushadi hamda bu taklifni qabul qilib shaxarchaga ko‘chib keladilar. Ular ko‘chib kelgan shaxarcha, tashqi dunyodan uzilgan bo‘lib, inson faqat vafot etgandagina u yerdan chiqa oladi. Asarda huddi Jorj Oruelning “1984” dagi kabi noma’lum boshliq distopik jamiyatni boshqaradi. Etvudning distopik asarlaridagi yana bir xususiyat shundaki, u oilaviy rishtalarni vayron qilish evaziga insonni bo‘ysuntirish g‘oyasini ilgari suradi. Shuningdek, bu asarning boshqa distopik asarlardan farqi distopik muammoga utopik yechim sifatida yangi jamiyat, ya’ni shaxarcha taklif qilinadi, lekin utopiya deb e’tirof etilgan bu shaxarcha o‘zining yashirin xususiyatlarini fosh etib, distopiyaga aylanadi [5,94]. Bu o‘rinda Etvud yaratgan atama “ustopiya”ga xos xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Etvudning bu asarini aynan satirik distopiya deb atalishining sababi unda Sviftga xos satira va kinoyaning mavjudligidir. Romandagi maxbuslar va soqchilar o‘z o‘rnini vaqti –vaqti bilan o‘zgartirishi, qamoqxonaning o‘z hodimlarini moliyaviy tomondan qo‘llab-quvvatlashi kabi o‘rinlarda kinoyani ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, distopiyaning janr sifatida rivojlanishi utopiya atamasining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Distopiya atamasi

atrofida ham turli xil baxs-munozaralar mavjud bo'lib, ba'zi tanqidchilar uni utopiyaning aksi, ya'ni ziddidir deyishsa, boshqa bir tanqidchilar, distopiya «Kitobxon yashayotgan jamiyatdan ham yomonroq jamiyat» deb ta'rif beradilar. Distopiya avval ilmiy-fantastikaning bir bo'lagi sifatida tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik alohida atama sifatida taraqqiy etdi. Margaret Etvud esa o'z navbatida bu janrning rivojiga o'z hissasini qo'shgan adibalardan biri hisoblanadi. U hozirgi kunning mavjud siyosiy-ijtimoiy ahvolini tasvirlashni maqsad qilgan va bu yo'lda u distopiya nasriga tayangan. Bu janr Etvudga o'z zamonaviyligi va ommabopligini saqlab qolgan holda o'z uslubini topishiga yordam berdi.

Adabiyotlar ro'yxati

Atwood, M. "Writing Utopia," Writing with Intent: Essays, Reviews, Personal Prose 1983–2005 .New York: Carroll and Graf Publishers. – pp92. – 2005.

Atwood, M. In other Worlds. SF and the Human Imagination. – New York: Virago. – 2011.

Claeys, G. The Cambridge Companion to Utopian literature. – Cambridge University Press. – 2010.

Kadirova, D.D. Distopiya janrining nazariy va tarixiy taraqqiyoti. Innovations In Technology And Science Education, №2(9). - pp897-905. – 2023.

Meera K.S. In the World of Dystopia. A Theoretical Analysis Of The heart Goes Last by Margaret Atwood. Elixir Literature №94. - p40489 - 40499 – 2016.

Mohr, D. M. "Transgressive Utopian Dystopias: The Postmodern Reappearance of Utopia in the Disguise of Dystopia". Zeitschrift Für Anglistik Und Amerikanistik . A Quarterly of Language, Literature and Culture №55 (1). - pp1-25. – 2007.
<https://doi.org/10.1515/zaa-2007-0103>

Moylan, T. Scraps of the Untainted Sky. Science Fiction, Utopia, Dystopia. – Oxford: Westview. – 2000.

Moylan, T., Baccolini, R. Utopia Method Vision: The Use Value of Social Dreaming. – Bern: Peter Lang. – 2007.

The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford, UK: Oxford University Press. – 2001.

